
“Do‘stlik” mahallasi yoshlari uchun universal sport maydonchasi qurildi
Qo‘shtepa tumanidagi “Do‘stlik” mahallasi yoshlari 2023-yilda o‘tkazilgan “Besh tashabbus olimpiadasi”ning Respublika bosqichida munosib qatnashib, 1-o‘rinni egallashgan hamda 22-26 yosh toifasida g‘olib bo‘lgan mahallaning qizlar jamoasi musobaqaning bosh sovrini bo‘lgan “Mahallasi uchun universal sport maydonchasi” sertifikatini qo‘lga kiritishgan edi.

Bugun “Do‘stlik” mahallasi hududiga qurib bitkazilgan sport maydonchasining ochlish marosimi o‘tkazildi. Unda tuman hokimining o‘rinbosari A.Yusupov hamda tegishli idoralarning mutasaddi rahbarlari, mahalla yoshlari va musobaqa chempionlari qatnashdi.







2024-09-27 11:36:50